

**MIRMUHSIN ASARLARIDA KINOYA VA TAG MA'NONI
IFODALOVCHI BIRLIKlar
(“Me'mor” romanı misolida)**

*Utayeva Dilobar Utkir qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Yusupov Sardor Shodi o'g'li,
ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti
dilobarutayeva@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida so'zlarning tag ma'nosi va kinoya haqida gap ketadi. Taniqli yozuvchimiz Mirmuhsinning “Me'mor” romanı matnida tag ma'no va kinoyaga olingan jumllalarning ma'nosi batafsil izohlandi. Undan tashqari kinoyaviy so'zlar uslubiyati haqida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kinoya, tag ma'no, asos, so'z, ma'no ko'chishi, “Me'mor”, uslub, teskari ma'no, kesatiq, yasama ma'no, bosh ma'no, til, mazmun.

**MİRMÜHSİN'İN ESERLERİNDEN İRONİ VE AŞAĞI BİRİMLERİ
(“Mimar” romanı örneğinde)**

*Utayeva Dilobar Utkir kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi
Yusupov Sardor Shodi o'g'li, bilimsel danışman,
Özbek dili ve edebiyatı bölümü asistanı*

Özet. Bu makalede Özbek dilindeki kelimelerin altta yatan anlamı ve ironisi ele alınmaktadır. Ünlü yazarımız Mirmuhsin'in "Mimar" adlı romanının metninde geçen alt metinlerin anlamları ve ironik cümleler ayrıntılı olarak anlatılmıştır. Ayrıca ironik söz söyleme metodolojisi hakkında da düşünceler sunulmaktadır.

Anahtar kelimeler. Ironi, altta yatan anlam, temel, kelime, anlam aktarımı, "Mimar", uslup, ters anlam, kesme, yapay anlam, asıl anlam, dil, içerik.

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ПЕРЕДАЮЩИЕ ИРОНИЮ
И СКРЫТЫЙ СМЫСЛ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МИРМУХСИНА
(На примере романа «Архитектор»)**

*Утаева Дилобар Уткир кызы,
студентка Узбекско-Финского педагогического института
Юсупов Сардор Шоди угли, научный руководитель,
ассистент кафедры узбекского языка и литературы*

Аннотация. В данной статье рассматривается скрытый смысл и ирония слов в узбекском языке. Подробно объясняется смысл подтекста и иронических предложений в тексте романа «Архитектор» нашего известного писателя Мирмухсина. Кроме того, высказываются соображения о методологии иронических слов.

Ключевые слова. Ирония, подтекст, основа, слово, перенос смысла, «Архитектор», стиль, перевернутый смысл, монтаж, искусственный смысл, основной смысл, язык, содержание.

**UNITS THAT EXPRESS IRONY AND TAG IN MIRMUHSIN'S WORKS
(On the example of the novel "The Architect")**

*Utayeva Dilobar Utkir qizi,
Uzbek-Finnish pedagogical institute
Faculty of languages, student of uzbek language and literature
Scientific advisor: Yusupov Sardor Shodi o'g'li, assistant of the
Department of uzbek language and literature*

Abstract. This article discusses the semantics and irony of words in the Uzbek language. The semantics and the meaning of ironic sentences in the text of the novel "Me'mor" by our famous writer Mirmuhsin are explained in detail. In addition, thoughts are also given about the methodology of ironic words.

Keywords. Irony, underlying meaning, basis, word, transfer of meaning, "Architect", style, inverted meaning, cut, artificial meaning, main meaning, language, content.

Tilimizda so'zlar o'zining asosiy ma'nosidan tashqari ko'chma ma'no va uslubiy ma'nolar ham ifodalab keladi. So'z va uning ma'nolarini tilshunosligimizning leksikologiya bo'limi o'rGANADI. So'zlarning borliqda nimani atab kelishi, qanday vazifa bajarishi uning atash ma'nosi yoki leksik ma'no deyiladi. "So'z til birligi sifatida, ayrim olinganda, biror konkret ma'noni bildirsa, nutq birligi sifatida gapda yana boshqa manolarni ham bildirishi mumkin. Natijada so'z ma'nosining torayishi, kengayishi, o'zgarishi yuz beradi va so'zning quyidagicha ma'nolari hosil bo'ladi: bosh ma'no va yasama ma'no" [1, 44 b.]. So'zlar nutqda turli xil ma'nolarda qo'llanadi, lekin bularning hammasi ham adabiy tilda uchramaydi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zning bosh ma'no bilan aloqasi uzilib ketmaydi. Bunda bosh ma'noning qaysidir o'xshash jihatasi asosida ma'no ko'chadi. "So'zning dastlabki, asosiy, birlamchi, boshqa bir leksik ma'nosining kelib chiqishi uchun asos bo'lgan ma'nosi bosh ma'no deyiladi. Shu bosh ma'noning taraqqiyoti asosida kelib chiqqan ma'no yasama ma'no deyiladi" [1, 45 b.]. So'zning asosiy ma'nosi bosh ma'no yoki tag ma'no deb ham yuritiladi. So'zning tag ma'nosiga teskari ma'noda qo'llanishi kinoya deb yuritiladi. Kinoya ham ma'no ko'chishi orqali sodir bo'ladi.

"Asos ma'no shunday ma'no bo'ladiki, so'zdagi biror yoki bir necha ma'no doimo unga bog'liq bo'ladi. Shu ma'no yoki ma'nolar obyekti asos ma'no obyektlariga o'xshashligi, aloqadorligi, tarkiblanishi, vazifa almashishi yoki tobeliligi bilan xarakterlanadi va shu orqali asos ma'noni ifoda etuvchi so'z bilan ifodalanadi. Mana shu keyingi ma'nolarga nisbatan ham mazkur ma'no asos ma'no hisoblanadi" [2, 119 b.]. Taniqli o'zbek adibi Mirmuhsin asarlarida bir qancha kinoyaga olingan so'zlarni uchratishimiz mumkin. "Me'mor" romani bunday so'zlarga boy asar hisoblanadi. Masalan:

1. "Me'morchilik san'atiga aloqasi yo'q, doimo ustod Qavom bilan ustod Buxoriy orasini buzib yurgan "yumshoq supurgi", Ahmad Chalabiyni esa, qo'llab-quvvatlardi" [3, 15 b.].

Ushbu gapda "yumshoq supurgi" iborasi orqali Ahmad Chalabiy kinoya qilingan. Aslida bu so'z sodda, yuvosh kishilarga nisbatan ishlataladi. Bu parchada asar qahramoni Ahmad Chalabiyning mug'ombir, tilyog'lamachi kishi ekanligini tasvirlash uchun aks ma'noda qo'llangan.

2. "Janoblar, sayil qachon boshlanadi? – dedi Badia, yana "o'g'il bolalik"ka qaytib" [3, 152 b.]. Asarda me'morning qizi Badianing o'g'il bolacha kiyinib o'zini o'g'il boladek ko'rsatgan holatlari uchraydi. Shu vaqtarda "yigitcha", "o'g'il bola" kabi kinoyalar qo'llanadi. Badia akasining kiyimlarini kiyib, xanjar olib yuradi. O'sha vaqtida Hirotda o'g'il boladek kiyining boshqa qizlarni ham uchratib qolishardi.

3. "Mashaqqatli, issiq yo'l bedov otlarni ham boshqa otlardek, "mo'min" qilib qo'ygan edi" [3, 261 b.].

Ushbu gapda mo'min so'zi kinoyaga olingan. Bu so'zning tag ma'nosi e'tiqod qiluvchi, ishonuvchi hisoblanadi. Yuqoridagi parchada tutqich bermaydigan otlarning qiyin yo'lni bosib o'tishi natijasida qo'lga o'rgatilgandek yuvosh tortib qolishiga ishora qilingan.

4. "Me'mor yasatig'lik xonaga kirib yotdi. Badia bu "iltifot"ga shubha bilan qarab, og'asining lattaga o'rog'liq isfixonini o'ziga yaqin qo'ydi" [3, 281 b.]. Mazkur gapda iltifot so'ziga e'tibor beramiz. Iltifot so'zi, aslida, insonga qilingan yaxshi munosabat, marhamat degan ma'nolarni bildiradi. Uning aks ma'nosi esa, sovuq muomala qilishni bildiradi. Roman qahramonlari Hirotdan Buxoroga yo'lga chiqqan bo'lishadi. Yo'lida ularning joniga qasd qilish uchun ayg'oqchi ham qo'yiladi. Shuning uchun har qanday iltifot Badiani shubhaga solardi. Bu iltifot tagida yovuz niyat bordek tuyilar edi.

5. "Me'morning bedarak "yo'qolib-yitib" ketgani go'yo uning yo'lini ochgan, undan "buyuk" odam yoq edi" [3, 338 b.]. Ushbu parchada birato'la ikki o'rinda kinoya mavjud. Me'morga nisbatan "yo'qolib-yitib" ketish sifati qo'llangan. Aslida, me'mor yo'qolib ketmaydi. Amirzodalar uni Hirotdan uzoqroqqa yuborish niyatida bo'lishadi va me'mor o'z shahri Buxoroga borish uchun yo'lga tushadi. U ketgandan so'ng qurilish ishlari korfarmo vazifasini bajaradigan Ahmad Chalabiya qoladi. "Buyuk" sifati shu sababdan teskari ma'noda qo'llangan. Chunki Ahmad Chalabiy me'morchilikdan xabari yo'q kishi edi. Aslida u buyuk odam emas, undan hamma bezor edi.

6. "Bu gap tezda shaharga tarqalib ketdi. Og'izdan-og'izga o'tib, ba'zi odamlar chalg'ib: "qabohat yo'liga kirgan" Me'morni la'natladi" [3, 339 b.]. Romanda ko'rishimiz mumkinki, me'mor hech qanday qabohat yo'liga kirmaydi. O'g'li Nizomiddin shohga suiqasd qilganlarga qo'shilib qoladi va qatl ettiriladi, shu sababli me'morning Hirotda qolishi xavfli bo'lib qoladi. Ayrim yomon niyatli kishilar vaqtidan foydalanib me'mor haqida turli xil bo'limg'ur gaplar tarqatishadi. Uni xalq orasida obro'sizlantirmoqchi bo'ladi. Lekin romandan bilamizki, me'mor oqko'ngil, mamlakat uchun sidqidildan xizmat qilgan, atrofdagilardan iliq so'zi va molini ayamaydigan, xalq orasida obro'li shaxs edi.

"Kinoya – til birligini uning haqqoniy ma'nosiga nisbatan boshqa yoki qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochiriq, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim" [4, 58 b.]. Kinoya qilingan so'z yozma nutqda yaqqol ko'rinish turadi. Negaki, bunday so'zlar qo'shtirnoq ichida yoziladi. Og'zaki nutqda esa talaffuzdan, ohangdan bilib olish mumkin. Uslub jihatdan qaralganda, kinoya rasmiy, ilmiy va publisistik uslublarda deyarli qo'llanmaydi. Badiiy uslubda asar ta'sirchanligi va ifodaviyligini oshirish maqsadida qo'llaniladi. "Me'mor" romanida qahramonlarni sifatlash, ta'riflash va bo'lgan voqealarga nisbatan fikr bildirish holatlarida ko'plab kinoyaviy so'zlarga duch kelamiz. So'zlashuv uslubi esa, kinoyalarga boy hisoblanadi. Nutq jarayonida talaygina kinoya qilingan so'zlarni eshitamiz va o'zimiz ham qo'llaymiz. Badiiy va so'zlashuv uslubi kinoyalarga boy uslublardir. Kinoya so'zning tag ma'nosi bilan aloqadorlikda, o'xshash jihatlari orqali emas, balki batamom teskari mazmunni ifodalash uchun ma'no ko'chirilishidir.

Xulosa qilib aytganda, tag ma'no va kinoyadan foydalanish nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda esa ifodalanayotgan fikrga subyektiv munosabat va emotsiyonallik bag'ishlash uchun qo'llaniladi. Ular til va nutq birliklarining muhim, ajralmas qismi hisoblanadi. Biz bilamizki, muloqotda kinoyaning qo'llanish o'rni erkin, ammo ularidan me'yordan ortiq foydalanish nutq sofligiga ta'sir qilishi mumkin. Kinoya berilayotgan fikrni bevosita anglatmay, teskari ma'noda kesatiq, pichingni ifodalash uchun tag ma'no bilan uzviy bog'liq holda ishlatiladi. Bunday leksik vositalar til va nutq boyligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Miraziz Mirtojiyev. O'zbek tilida polisemiya. Toshkent, 1984. 135 b.
2. X.Muxiddinova, D.Xudayberganova, I.Umirov, N.Jiyanova, T.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2006. 208 b.
3. Mirmuhsin. "Me'mor" romani. Toshkent. 2024. 416 b.
4. N.Mahkamov, I.Ermatov. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. 2013. 144 b.
5. www.ziyonet.uz elektron sayti